

**MIRZACHO'L TABIIY GEOGRAFIK RAYONIDA
EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MUAMMOLARI VA
ISTIQBOLLARI**

Bo'ronova Gulhayo Isomiddin qizi

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya
yo'nalishi 2-kurs talabasi*

E-mail: buronovagulhayo57@gmail.com

Annotatsiya: Turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi soha, balki milliy madaniyat va qadriyatlarni dunyoga tanitishda ham muhim vositadir. So'nggi yillarda Prezident tashabbusi bilan sohaga oid qabul qilingan qonunlar, farmonlar va strategiyalar orqali O'zbekistonda turizmning yangi bosqichi shakllanmoqda. Mazkur maqolada turizm sohasining hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolar va ularning yechimlari, shuningdek, istiqbolli yo'nalishlar ilmiy tahlil qilinadi. Maqola yakunida amaliy tavsiyalar ham beriladi.

Kalit so'zlar: turizm, O'zbekiston, iqtisodiy rivojlanish, turizm strategiyasi, ziyorat turizmi.

Kirish qism

Ekologik turizm o'tgan asrning oxirlaridan boshlab jahon turizmi va industriyasiga asta-sekin kirib kela boshladi. Bugungi kunga kelib jahonda ekologik turizm jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan sohalarning biriga aylandi. Yevropa va Osiyoning turizm rivojlangan mamlakatlaridagi ekoturistik tashkilotlarning erishgan yutuqlari, bu sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari ilmiy tadqiqotlar maxsus adabiyotlarga o'rganilgan bo'lsa, O'zbekistonda ekoturizm masalasiga yetarlicha e'tibor berilmagan va o'rganilmagan. xorijiy mamlakatlar etakchi olimlaridan B.L. Smit, Donal'd Landberd, M. Kchisnallo, Mayk stavengo, M.Ansoff, R.M.Balmastor, R.Ol'eg, P.E.Morfi, C.K.Polor va Orhar Turkay kabi ko'plab olimlar o'z ilmiy-amaliy izlanishlarini bag'ishlaganlar va ilmiy xulosalar bilan xalqaro turizmning rivojlanishiga hissalarini qo'shganlar. Shuningdek, mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari olimlaridan V.I. Azar, A.Yu. Aleksandrova, N.S.Byrgakov, V.F.Molchanov, E.P.Puzakov, V.A. Chestnikova, J.Kozirev, A.Kondrateva, N.Kabushkin, M.B.Birjakov va boshqa ko'plab olimlar o'z ilmiy amaliy ishlarida turizm sanoati samaradorligini oshirish to'g'risida o'zlarining fikr mulohazalarini berganlar. O'zbekistonlik olimlardan esa Tuhliyev N., Abdullayeva T., Hamidov O.X., Xoldarov T., Tulenova X. A.A. Allaberganov, A. Nig'matov va boshqa ko'plab olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlari bilan turizm sohasi ilmiy rivojlanishini nazariy va amaliy asoslarini yoritishga muhim hissa qo'shganlar Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishni hududiy



tashkil etish ekologik – iqtisodiy rayonlashtirish nazariyasi va amaliyotiga asoslanadi. Ekologik – iqtisodiy rayonlashtirish doirasida mintaqalar va hududlar xo‘jaligining ixtisoslashishi va majmua rivojlanishi masalalari bir qatorda xo‘jalik va tabiatning konkret hududlarda o‘zaro ta‘sirining maqsadga muvofiq shakllari ham belgilanadi.

O‘zbekistonning tabiiy-ekologik xususiyatlariga ko‘ra bir tomondan yirik tabiiy-ekologik-iqtisodiy-makro zonalarga, boshqa tomondan esa ekologik – iqtisodiy rayonlar tizimiga ajratish mumkin. Ularning har biri hududiy ekologik – iqtisodiy rivojlanishning ma‘lum vazifalariga javob beradi. O‘zbekistonning ekologik – iqtisodiy rayonlashtirishning asosini mamlakatni 3 ta yirik makrozonaga va 8 ta ekologik – iqtisodiy rayonga bo‘lish tashkil etadi. O‘zbekiston hududi 3 ta yirik makrohududga bo‘linadi:

- 1) cho‘l(sahro) zonasi;
- 2) sug‘oriladigan tekislik (antrogen) zona;
- 3) tog‘oldi-tog‘ zonasi.

Mamlakatning hozirgi ekologik-iqtisodiy rayonlari tizimi asosan O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy rayonlari tizimiga mos keladi. Har bir ekologik-iqtisodiy rayon ishlab chiqarish kuchlarini tabiatga ta‘siri darajasi bo‘yicha boshqalaridan farq qiladi. O‘zbekistonda quyidagi ekologik – iqtisodiy rayon shakllangan:

- 1) Toshkent (Toshkent shahri, Toshkent viloyati);
- 2) Farg‘ona (Farg‘ona, Namangan, Andijon viloyatlari);
- 3) Mirzacho‘l (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari);
- 4) Samarqand-Zarafshon (Samarqand viloyati);
- 5) Buxoro-Navoiy (Buxoro va Navoiy viloyatlari);
- 6) Qashqadaryo (Qashqadaryo viloyati);
- 7) Surxondaryo (Surxondaryo viloyati);
- 8) Quyi Amudaryo (Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi).

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat Qo‘mitasining mataxassislari O‘zbekistonning ekoturistik rayonlari xaritasini ishlab chiqishgan. Xaritaga muvofiq butun mamlakat hududi XIV ekoturistik rayonga ajratilgan. Har bir ekoturistik rayonga ekoturistik hudud deb ham qarash mumkin. Ular jumlasiga Ustyurt, Orol va Orolbo‘yi, Amudaryo, Qizilqum, Nurota, Zarafshon, Aydarkul, Sirdaryo, Chirchiq, Ohangaron, Farg‘ona, Turkiston, Qashqadaryo, Hisor, Surxondaryo ekoturistik rayonlari kiritilgan. Mirzacho‘l tabiiy geografik rayonining Turkiston tog‘ tizmasi hududida turizmni yo‘lga qo‘yilishi bu joyning ajoyib havosi, betakror tabiiy manzaralari, o‘ziga hos faunasi va florasini nafaqat mamlakatimiz balki chet ellik sayyohlarning e‘tiborini jalb etadi. Shuning ko‘ra turistlar uchun ekologik marshrutlarning tamoyillarini aniqlash, ya‘ni qulaylik, jozibadrlilik, mazmundorlik, faoliyatlilik, ko‘pqirralilik, qulaylik va axborotlanganlilikni yo‘lga qo‘yish va ular xavfizligini ta‘minlash choralarini belgilash maqsadga



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

muvofiqdir. Hozircha Mirzacho'l tabiiy geografik rayonidagi Zomin tumani Pishog'or, Xulkar, Duoba, Tog'terak, O'rikli soy, Usmonli soy, Suvli soy qishloqlariga tashkil etilgan uy mehmonxonalari kelajakda boshqa tumanlar qishloqlariga ham yoyiladi deb umid qilinmoqda. Jizzax viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida suvda dam olish va plyaj turizmini rivojlantirish bo'yicha qarorga asosan, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi hamda To'dako'l ko'lida rekreatsion ko'llar hududi tashkil etildi.

Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions)

O'zbekistonda turizm sohasi jadal rivojlanib, iqtisodiyotning barqaror tarmoqlaridan biriga aylanish arafasida. Statistik ma'lumotlar va xalqaro tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, turizm eksportga yo'naltirilgan xizmatlar orasida yetakchi o'rin egallamoqda. Shunga qaramay, sohaga oid bir qator tizimli muammolar mavjud: xizmatlar sifati ba'zi hududlarda past darajada qolmoqda, logistika va kadrlar bilan ta'minlanish muammolari saqlanib turibdi.

Xulosa(Conclusion)

O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyati nihoyatda boy va xilma-xildir. So'nggi yillarda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, infratuzilma loyihalari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ta'lim tizimini takomillashtirish orqali sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Mirzacho'l tabiiy geografik rayonida ekoturizmni rivojlantirishdan asosiy maqsad jamiyat ehtiyojlarini qondirish, xizmat ko'rsatish sifati va xajmini kengaytirgan holda dunyo standartlari darajasida bozaor iqtisodiy modelini ekoturizmga kirib kelishini ta'minlashdir. Jamiyat ehtiyoji turistlar talabini ichki va tashqi turizm xizmatlarini qondirish, shu bilan xizmat importiga bo'lgan xalqaro talabni o'rganish, aholining ekuskursion xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan bog'liq. Yuqorida bayon qilinganlaridan xulosa qilib, quyidagi takliflar bayonini keltiramiz:

Resurslarning samarali ishlatilishini, kichik va xususiy tadbirkorlikni keng avj oldirish; Zamonaviy turistik umumiy binyod etish, ularni xalqaro standartlarga moslash, xorijiy investitsiyani jalb etish. Yirik xorijiy firmalar bilan barcha turistik xizmatlar ko'rsatishning yangi shakllarini tashkil etish; Jahon turistlarining talabi katta bo'lgan ekoturizm bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarni ko'paytirish;

Jizzaxda ekoturizmi rivojlantirishda milliy, milliy xususiy an'analarni reklama qilish; Shu bilan birga, mavjud muammolarni tizimli hal qilish orqali mamlakatni Markaziy Osiyodagi yetakchi turistik markazga aylantirish imkoniyati mavjud. Maqolada keltirilgan taklif va tavsiyalar asosida amaliy chora-tadbirlar ko'rilsa, bu nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy taraqqiyotga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

PF-60-sonli farmoni “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yangi strategiyasi to‘g‘risida”.

2. “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi (2019–2025 yillar)”

3. Abdunazarov, U., & Sabitova, N., Kholdorova, G . Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. Архив Научных Публикаций JSPI.

4. Hasanov B.X. “Turizm iqtisodiyoti”, Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

5. G‘o‘dalov M.R. Jiizzaxviloyatigeografiyasi. Jiizzax 2004.

1. Soliyev A.C, Usmonov M.R. Turizm geografiyasi. Samarqand. 2012.

6. Gapparov, A., & Kholdorova, G. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. Архив Научных Публикаций JSPI.

7. Kholdorova, G. M. (2020). Changes In Natural Geographical Processes In The Mirzachul Region Under The Influence of The Sardoba Reservoir. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(3), 3136-3147

8. Хакимов, К. М., Холдорова, Г. М., & Эрматова, Н. Н. К. (2017). Принципы и основные положения номинации географических объектов. Проблемы современной науки и образования, (4 (86)).

9. Холдорова Г. Мирзачўл табиий ўлкаси ландшафтларининг ўзгаришида шамолнинг аҳамияти, Экология хабарномаси 2021 №2(233)

